

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Nortojiyeva Sevinch Raximjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
sevinchnortojiyeva31@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20520781>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O'zbekiston tijorat banklaridagi raqamli texnologiyalar, FinTech innovatsiyalarini joriy qilish va mavjud muammolar hamda ularni joriy qilish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni joriy qilishdagi asosiy to'siqlar, kiberxavfsizlik choralari va ularni bartaraf etish usullariga batafsil to'xtalib o'tilgan. Muammolarning yechimi sifatida blokchain, sun'iy intellekt va biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy qilish borasida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Joriy qilinadigan yangi texnologiyalarning bank xarajatlarini kamaytirish va yashirin iqtisodiyotning oldini olishdagi amiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, FinTech, bank, kiberhujum, raqamli savodxonlik, mobil ilova, biometrik identifikatsiya, strategiya.

Abstract: This thesis analyzes digital technologies, the implementation of FinTech innovations, existing problems, and the efficiency of their adoption in commercial banks of Uzbekistan. The study elaborates on the main obstacles to implementing digital technologies, cybersecurity measures, and methods to overcome them. As solutions to these problems, proposals and recommendations are put forward regarding the implementation of blockchain, artificial intelligence, and biometric identification systems. The significance of the new technologies to be introduced in reducing banking costs and preventing the shadow economy is demonstrated.

Keywords: digitalization, FinTech, banking, cyberattack, digital literacy, mobile application, biometric identification, strategy.

Аннотация: В данном тезисе анализируются цифровые технологии, внедрение инноваций FinTech, существующие проблемы и эффективность их реализации в коммерческих банках Узбекистана. В ходе исследования подробно рассматриваются основные препятствия на пути внедрения цифровых технологий, меры кибербезопасности и методы их устранения. В качестве решения проблем выдвинуты предложения и рекомендации по внедрению блокчейна, искусственного интеллекта и систем биометрической идентификации. Показано значение внедряемых новых технологий в снижении банковских расходов и предотвращении теневой экономики.

Ключевые слова: цифровизация, FinTech, банк, кибератака, цифровая грамотность, мобильное приложение, биометрическая идентификация, стратегия.

Bugungi kunda jahon moliya bozorida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bank tizimining barqaror ishlashini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. FinTech shunchaki bank faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita emas, mijozlar oqimini boshqaruvchi, moliyaviy bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi va samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi kunda an'anaviy banklar o'z vazifasining ma'lum qismini yangicha ekotizimga ega raqamli moliya institutlariga bo'shatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda 12.05.2020 da qabul qilingan PF-5992-sonli "2020 — 2025-

yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlariga ko'ra an'anaviy bank xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish va masofaviy xizmatlar ko'lamini oshirish dolzarb hisoblanadi.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish belgilab qo'yilgan. Bu borada keng ko'lamli sihlar amalga oshirildi.

Bank xizmatlarini an'anaviy tizimdan raqamli tizimga transformatsiya qilishga sabab bo'lgan asosiy omillar quyidagilar:

1. Iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishi. Bugungi kunda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar uzun navbatlarda vaqr sarflashdan ko'ra o'z smartfonlari orqali bank xizmatlarini qisqa muddat ichida hal qilishni xohlashadi.

2. Operatsion xarajatlarni optimallashtirish. Raqamli tizimga o'tish banklarga qog'ozbozlikni kamaytirish, xodimlar sonini optimallashtirish va filliialarning saqlash xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi. Bu esa xarajatlarni kamaytiradi.

3. Inkluziv moliyaviy muhit yaratish. Raqamli texnologiyalar orqali olis va chekka hududlarda yashovchi mamlakat aholisi ham bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda FinTechning joriy etilishi bank aktivlarining o'sishiga va naq pulsiz hisob-kitoblar hajmi oshishiga xizmat qilmoqda. Biroq bu orqali tizimda iqtisodiy, texnologik va institutsional muammolar ham kelib chiqmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bu muammolarni aniqlash, ularning sabablarini o'rganish va muammoga yechim berish mazkur tadqiqotning muhimligini belgilab beradi.

Bank tizimini raqamlashtirish samaradorlikni oshirayotgan bo'lsada, uning to'liq va samarali ishlashi uchun bir nechta muammolar to'siq bo'lmoqda. Bu muammolarni texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy guruhlariga ajratib o'rganish mumkin. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bank amaliyotlari kiberxujumga uchrash xavfi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi kiberjinoyatchilik xavfini oshishiga olib keldi. Banklar va bank mijozlari hisob raqamlariga uyushtirilayotgan kiberxujumlar katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelmoqda, shuningdek, insonlarning ishonchi yo'qolishi natijasida banklarning nufuziga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

2. Olis hududlarda raqamli infratuzilmaning yaxshi emasligi. Yirik shaharlar va markazlarda FinTechdan foydalanuvchilar soni oshib borayotgan bo'lsada, olis hududlarda yashovchi aholi bir qancha kamchiliklarga duch kelmoqda. Bularning sababi internet tezligining pastligi, elektr ta'minotidagi uzulishlar tufayli bankomatlarining ishlamay qolishi va chekka hududlarda raqamli infratuzilmaning yetishmasligidir.

3. Aholining katta qismida raqamli moliyaviy savodxonlikning pastligi. Aholining, ayniqsa, katta yoshlilarning raqamli mobil ilovalar va platformalardan foydalanish ko'nikmasi yuqori emas. Ular hali ham pullarni naqdlashtirish va to'lovlarini bank filiallari orqali amalga oshirishni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari ba'zi insonlar soddaliklari tufayli telefoniga kelgan kodlarni boshqalarga aytish oqibatida kiberhujum qurboni bo'lishmoqda.

4. Malakali kadrlar yetishmasligi. Bank tizimida raqamli xavfsiz texnologiyalarni yaratuvchi yutuk kadrlarga ehtiyoj katta. Malakali kadrlar kamligi sababli ularni ushlab turish yuqori maosh bilan ta'minlash majburiyatini talab qiladi.

Aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko'paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va

mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazilishi strategiya doirasida belgilab olingan va amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, mazkur strategiya doirasida 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtirildi.

Bugungi kunda bank karta foydalanuvchilari soni 55 millondan oshdi. Bular jismoniy va yuridik shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni oldini olish maqsadida quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishda parollar, tizimidan voz kechib biometrik identifikatsiya tizimlari bilan integratsiyani amalga oshirish lozim. Bu kiberxujumlar ko‘lamini kamaytirishga yordam beradi.

Banklar o‘rtasidagi tranzaksiyalar, hujjatlar aylanmasi va mijozlar ma’lumotlar ba’zasini xavfsizligini muhofaza qilishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish ularga kirish va o‘zgartirish imkonini bermaydi.

Aholi uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan bepul darslar joriy qilish va mobil banking ilovalari interfeysini soddalashtirish ham raqamli banklar foydalanuvchilarining oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025?ONDATE=22.04.2025>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. I.I.Jurayev. The role of digital technologies in ensuring the stability of bank deposits in commercial banks. European Journal of Economics, Finance and Business Development.
4. Qanaatov A, Abdujalilov Sh, Abduvaliyev B. O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli banking va FinTech yechimlarining rivojlanishi va xavfsizlik masalalari. Journal of Marketing, Bussiness and Management.